



BOLA TARBIYASIDA TARBIYACHI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINING AHAMIYATI

Choriyeva Durdona Anvarovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti, PhD

[*Choriyevadurdona76@gmail.com*](mailto:Choriyevadurdona76@gmail.com)

Farxodova Asaxon Dilshod qizi, Mardonova Durdona Yunus qizi

"Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" yo'nalishi 4 kurs talabalari

Annotatsiya. Maqolada tarbiyachilarimizning ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlari, oilaga tarbiyaning borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning hamkorligining muhim shartlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Hamkorlik, suhbat o'tkazish, maslahatlar berish.

Аннотация. В статье рассматривается индивидуальная работа наших педагогов с родителями, ход семейного воспитания, проведение интервью с родителями, предоставление им консультаций, а также важные условия родительского сотрудничества.

Ключевые слова. Сотрудничество, общение, советы.

Abstract. The article covers the work of our educators with parents one-on-one, the progress of family education, conducting conversations for parents, giving them advice, and important conditions for parental cooperation.

Key words. Cooperation, conducting conversations, giving advice.



MTTning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTT xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllari:

- ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilg'or pedagogik tajribalarni ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib ularni o'zining tarbiyaviy ishida xisobga oladi. Tarbiyachilarimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarining turli xil shakllari aniqlangan; oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning MTT hayoti bilan tanishishlari quyidagilardan iborat:

- ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhliy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

- ko'rsatmali ishlar. Ishning bu turi ko'rgazmali, bolalarni ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo'yicha materiallar solingan papka.

- ota-onaga pedagogik ta'lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Bola yashab turgan oilani o'rganish ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsad bola yashayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa ota-onalarga yordam ko'rsatishdir. Oilani borib ko'rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odat bilan o'tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlarini ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo'lgan hurmati va ishonchi ortadi. Tarbiyachi bolaning uyida ko'rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda ularni tahlil qiladi, ota-



onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o'zining maslahatlarini beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiy ishlarni ota-onalar uchun tashkil etilgan testlarda aks ettirish ham mumkin. Oilani borib ko'rgandagi taassurotlarini tarbiyaviy ishlarni hisobga olish ustuniga yozib qo'yishi kerak Oilaga kamida yiliga 2 marta borib ko'riladi tarbiyachining oilaga borishi ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshiradi.

Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar. Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar bilan ota-onalarni bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga yordam beradi. Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo'ladi, shuningdek uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Ota-onalardan bola kechqurun qanday kayfiyatda bo'lganini, qanday uxlaganini bola o'zini qanday sezishni so'rash foydali. Tarbiyachi ota-onalarga bolalarni bugun guruhda nimalar kutishi xaqida qisqacha axborot beradi. Bu narsa bolani kayfiyatini ko'taradi, ota-onani xotirjam qiladi. Ota-onalar bilan kechki suhbatlar ham vaqt jihatidan cheklangan, ota-onalar bilan kechki suhbat vaqtida tarbiyachi bolaning tashqi ko'rinishiga taaluqli kamchiliklar aytilishi mumkin. Bolani guruhda kunni qanday o'tkazgani, nimalar bilan mashg'ul bo'lgani, o'zini qanday tutgani, nimaga e'tibor berish kerakligini xaqida axborot beradi. Ota-onalarni bola tarbiyasida yo'l qo'ygan biror kamchilik va xatosini tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o'tqazish zarurati tug'ilganda vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat hamda tavsiya berish kerak bo'lganda maslahatlar o'tkaziladi .

Majlislar mavzusini belgilashda va unga tayyorgarlik ko'rishda ota-onalari taklif etilayotgan bolalarni yoshini xisobga olish zarur. Shu munosabat bilan o'yin yoki mehnat faoliyatlari haqida masalalar ko'proq o'rin egallash mumkin. Ota-



onalarning umumiy majlisi maktabgacha ta'lim muassasalari hamma tarbiyalanuvchilarining ota-onalari uchun yiliga ikki marta o'tkaziladi. Ularni maktabgacha muassasa mudirasi, vrach, tarbiyachilar ishtirokida tashkil etiladi. Umumiy majlislarda ta'lim-tarbiyaviy ishning yakunlari muxokama qilinadi. Birinchi umumiy majlis o'quv yili boshida o'tkazilib, unda mudira ota-onalarni maktabgacha ta'lim muassasining yillik ish rejasi bilan tanishtiradi. Rejaning oila bilan bog'liq qismiga aniq to'xtalib o'tish lozim. Ikkinchi umumiy majlis o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Bunda maktabgacha ta'lim muassasining o'tgan yildagi ish yakunlari haqida ma'lumot beriladi. Bolalar muassasida tarbiyalanuvchilarning yashash sharoitlarni yaxshilashda ota-onalarning qo'shgan xissalari ta'kidlab o'tiladi. Umumiy majlislarda bolalar muassasasi jamoasi qanchalik katta va murakkab ishni bajarishni va bu ishda qanday yordam berish kerakligini ishonchli tarzda ko'rsatish kerak. Majlislarda pedagog ma'ruzasining xajmi 20-25 minut ga mo'ljallanadi .

Ota-onalar bilan MTT xodimlarini birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni MTT dagi sharoitlarga bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshiriladigan joyda o'zaro yordam, bir-birini tushunish, topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi. Ota-onalar MTT maydonini ko'kalamzorlashtirish, xonalarni qish mavsumiga tayorlash, sog'lomlashtirish ishlarini o'tkazishda yordam ko'rsatishlari, bolalarga bayram kastyumlari tayyorlashda, bolalarni sayyohatga kuzatib borishda ishtirok etishlari mumkin. Agar ota-onalar orasida fotosuratchilar, tikuvchilar, rassomlar bor bo'lsa, ular MTT ga bevosita yordam ko'rsatishlari kerak. Ota-onalarning ishi ijtimoiy harakterga ega va ixtiyoriylikka asoslangan bo'lishi kerak. Birgalikdagi ishni to'g'ri tashkil etish uchun yillik reja tuziladi va uni ko'rinadigan joyga ilib qo'yiladi. Ota-onalardan qaysi kunlari MTTga kelib yordam berishlari mumkinligini so'rash lozim.

Ochiq eshiklar kuni ota-onalar bilan ishlashning samarali shaklidir. Ochiq eshiklar kuni jamoaning o'z kalendar yillik rejasi bo'yicha har bir yosh guruhning



ma'lum rejimi bo'yicha odatdagi mehnat kunidir. Bunday kunlarni yiliga 1-2 marta o'tkazish tavsiya qilinadi. Ochiq eshiklar kunini o'tkazish zarur. Ya'ni ota-onalarga bolalarni jismoniy chiniqtirish, ovqatlantirish, mashg'ulotning borishi sayr haqida ko'pgina narsalarni ko'rish imkoniyatiga ega ekanliklari haqida ma'lum qilinadi.

Ota-onalarga esa quyidagilar eslatiladi: bolalar bilan oddiy munosabatda bo'lish, ularning faoliyatida imkon boricha ishtirok etish, tarbiyachiga xalaqit bermaslik, farzandiga tanbeh bermaslik (mashg'ulotlar o'tkazilayotganda).

Ochiq eshiklar kunini o'tkazishga tayyorlanayotganda fotosuratchini taklif etish, keyinchalik esa «Ota-onalar bizning mehmonimiz», «Bizda ochiq eshiklar kuni» mavzusida foto ko'rgazma tashkil etish mumkin. Bu ochiq eshiklar kunida qatnasha olmagan ota-onalarda qiziqish uyg'otadi.

Har bir MTT sida ota-onalar qo'mitasi bo'lib "Bolalar bog'chasi nizomi" bo'yicha tashkil etiladi. Ota-onalar qo'mitasi ishning vazifalari va mazmuni uning huquqlari, hisoboti va ish yuritishi Ota-onalar qo'mitasi haqidagi "Nizom" da aks etiriladi. Bu qo'mita ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Uning tarkibiga har bir guruhdan 1-2 vakil kiradi. Ular orasidan rais va kotib saylanadi. MTT rahbari va pedagogik jamoa ota-onalar qo'mitasiga faol tarbiya masalalarida uzoq bo'lmagan kishilarni tarafdoridir. Tarbiyachilar u yoki bu oila qanday ota-onalar qo'mitasiga a'zo bo'lganda so'ng MTTga ota yoki ona qanday yordam berishi mumkin, ular jamoa tarbiyasi hayoti bilan qiziqishadimi, MTTda bo'lish kerakligi haqidagi mashg'ulotlarni tartibini kuzatish, sayr qilishda ishtirok etish haqidagi taklifga labbay deb javob berishadimi? Degan savollarga javob berishlari kerak. Ota-onalar qo'mitasini unda ishlashni xohlovchi ota-onalardan ham saylash mumkin. Bunday ota-onalar odatda, samarali qiziqib ishlaydilar. Ota-onalar qo'mitasi ota-onalarning umumiy majlisiga hisob beradi, unga avval qabul qilingan qarorlarning bajarilishi xaqida hisobot beradi. Ota-onalarning umumiy majlisiga xisob beradi. Ota-onalar qo'mitasining faoliyati MTTning yillik rejasiga mos holda



rejali ravishda olib borilishi kerak. Qo'mita ishini mudiri boshqarib boradi . Uning majlislari kamida ikki oyda bir marta o'tqazilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kayumova N.M. "Maktabgacha pedagogika" Darslik 2013 y.
2. Chorjeva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
3. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
4. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
5. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
6. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
7. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014> Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),



- в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.
8. X.Meliyev, O.Jamoldinova "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati" O'quv qo'llanma 2021 y.
9. Chorlieva, D. A. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO'LLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.
10. Anvarovna, C. D. (2024). MANAGEMENT OF INNOVATIVE PROCESSES IN PRESCHOOL EDUCATION. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 58-62.
11. Anvarovna, C. D. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 48-53.
12. Anvarovna, C. D. (2024). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIK SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 54-57.
13. Choriyeva, D., & Ahmadova, S. (2023). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 1(2-3).
14. Durdona, C. (2023, December). KREATIVLIK ORQALI BOLALARNING QOBILYATLARINI OSHIRISH. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 12, pp. 302-305).
15. Durdona, C. (2023). BOLALARDA KREATIVLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 265-270.



16. Choriyeva, D. (2023). OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILADIGAN IJTIMOY VAZIFALAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(32).
17. DURDONA, C., & SHAHNOZA, K. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KREATIVLIGINI OSHIRISHDA TASVIRIY FAOLIYATNING O'RN. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(7), 191-196.